

31-yanvar kuni KOICA vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda TATUda KOICA hamkorligidagi "Integrated systems TUIT" (TATUda integrallashgan axborot tizimi) loyihasini amalga oshirishning 1-bosqichi yakunlari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida bajariladigan ishlar hajmi, yo'nalishlari va grafigi kelishildi hamda tasdiqlandi.

TATU, shuningdek, TATU Samarqand filiali vazifalari va roli, bosh loyihani samarali ishlab chiqish uchun manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari tinglandi. Hozirgi holat va muhiti, shuningdek, loyiha muvaffaqiyati asosiy omillarining (Critical Success Factors) batafsil tahlili o'tkazildi.

[Loyihaning 1-bosqich tahlilini shu yerdan yuklab olishingiz mumkin](#)

[TATU matbuot xizmati](#)